

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Xolbekov Abdug‘ani, Rasulov Hakim HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O‘ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI.....	9
2. Сеитов Азамат Пулатович ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКИХ ДАННЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СФЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	18
3. Якубов Ильдар Харрасович, Парманов Фарход Ярашевич КОНЦЕПЦИИ ВЛИЯНИЯ ИНТЕРНЕТ-ПРОСТРАНСТВА НА ОБЩЕСТВЕННО- ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ.....	27
4. Убайдуллаева Раиса ПРАВО, КАК ПРОФИЛАКТИКА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ.....	35
5. Abduraxmonova Manzura IJTIMOIY NIHOYANI RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY ISH KASBIY FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL JIHATLARI.....	42
6. Madaminov Baxodir JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI SIFATIDA...51	
7. Yusupov Rahimjon SOTSILOGIYANI O‘QITISHDA AHOLINI RO‘YXATGA Olish TADBIRLARIDAN FOYDALANISH.....	59
8. Узакова Зарина ФЕНОМЕНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «СОЦИАЛЬНЫЙ КАПИТАЛ» И РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ.....	68
9. Burxanov Xusniddin RAQAMLI JAMIYATDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA MILLIY SAYTLARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	75
10. Hojiyev Zavqiddin TASHKILOTLARDA XODIMLAR FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH BO‘YICHA ILMIY-METODOLOGIK YONDASHUVLARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	83
11. Mahammadjanov G‘olibjon FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLAR VA IJTIMOIY OHANG TRANSFORMATSII: UZARO BOGLIQLIK, ZARURAT OMILLARI (SINERGETIK ENDASHUV).....	93
12. Gaibnazarov Baxodir DAVLAT VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SOTSIAL BOSHQARUVNING ZARURIYATI OMILLARI (SOTSIOLOGIK YONDASHUV).....	100
13. Mamatqulova Fotimaxon O‘ZBEKISTONDA PENSIYA VA NAFAQALARNI RIVOJLANISH BOSQICHLAR.....	107

14. Komilova Xurshida XOTIN-QIZLARNI ILM-FAN TARAQQIYOTIDAGI FAOLIYATINING IJTIMOYIY ASPEKTLARI - XALQARO TAJRIBA.....	114
15. Mannanov Erkin SIYOSIY MADANIYAT: ZARURIYATI VA FUNKSIYALARI.....	123
16. Ubaydullayev Xurshidjon MIGRATSIYA VA TA'LIM MIGRATSIYASINI SOTSIOLOGIK JIHATDAN TAHLIL QILISH.....	130
17. Akramov Davronbek XAVF GURUHIDAGI OILALAR VA ULARNING BOLALARIGA IJTIMOYIY XIZMATLAR KO'RSATISHDA KEYS MENEJMENT USULINING SAMARADORLIGI.....	139
18. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIYASINING XUQUQIY ME'YORIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	148
19. Ахмедова Раъно АНАЛИЗ НЕКОТОРЫХ ИНДИКАТОРОВ БЛАГОСОСТОЯНИЯ.....	157
20. Латипова Нодира, Абдугафурова Чарос СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ КОМПОНЕНТЫ СОЗДАНИЯ ДОСТУПНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ЛЮДЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ВУЗЕ.....	167

ПРЕДИСЛОВИЕ К НОМЕРУ

Узбекистан, как страна, поставившая целью построение демократического государства, на системной основе проводит выборы различного уровня, которые базируются на нормативно-правовой базе, регулярно совершенствуемой в соответствии с международными избирательными стандартами. Все это направлено на обеспечение участия граждан в управлении государством и обществом, реализацию принципа волеизъявления народа как неотъемлемого атрибута демократического правового государства. Социология как теоретическая наука, анализирующая эмпирические показатели развития общества, также вносит свой достойный вклад в дело осмысления и совершенствования практики проведения выборов с учетом национального опыта демократических выборов.

Так, одним из проявлений политической жизни общества является участие в выборных процессах. Фактически этот акт является важнейшей формой проявления воли народа, от которой зависит характер и особенности общественного и государственного строительства. Социология как инструмент позволяет изучать комплекс проблем, связанных с особенностями подготовки и проведения выборов, а также с поведением населения в выборных компаниях, в том числе электоральных ориентаций социальных общностей и отдельных граждан. Наша наука позволяет на основе эмпирики лучше понять факторы, влияющие на участие в выборах и голосовании, мотивы участия или неучастия в них, изучение участия электората, особенности восприятия ими предвыборных мероприятий, партий и лиц кандидатов, оценка эффективности деятельности СМИ и уровней их влияния на позиции выборов, прогнозирования результатов выборов и т. д.

Это тем более важно, что 27 октября 2024 года в Узбекистане пройдет очередные парламентские выборы. Теперь они пройдут на основе внесенных изменений и дополнений в Избирательный кодекс страны, которые включают порядок проведения выборов в Законодательную палату на основе мажоритарно-пропорциональной (смешанной) системы. В этой системе избирательные округа теперь делятся на одномандатные и единый избирательный округ. 75 депутатов Законодательной палаты будут избраны от одномандатных округов по мажоритарной системе (голосование за кандидата), остальные 75 - по пропорциональной, то есть на основе голосов, отданных политическим партиям (по партийным спискам).

Все это и послужило важным мотивом выпуска данного специального выпуска нашего научного журнала. Открывает данный номер моя статья «Использование социологических данных в политической сфере Узбекистана», посвященной проведению социологических исследований и использования их данных в реализации предвыборных технологиях. Так, утверждается, что в условиях низкой политической активности в Узбекистане представляется важным использовать наработки политической социологии в сфере разработки и реализации стратегий в сфере политического управления в части работы с информационными и коммуникационными потоками. Через комплексное использование ПР-средств поддерживается репутация кандидата, формируется паблисити, создается общий план воздействия на сознание человека.

Интерес представляет и статья профессора Национального университета Узбекистана (далее НУУз), д.соц.н. А.Холбекова и заведующего кафедрой Термезского государственного педагогического института, к.п.н., профессора Х.Расулова на тему «Социологическая интерпретация взаимосвязи правовой и политической культуры». В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств.

В журнале опубликована статья доцента Университета мировой экономики и дипломатии (УМЭД), к.п.н. И.Якубова и доцента Академии государственного управления

(АГУ), д.соц.н. Ф.Парманова на тему «Концепции влияния интернет-пространства на общественно-политические процессы». В статье проанализированы некоторые теоретические аспекты и различные подходы исследователей к осмыслению данного феномена, выявлены некоторые их особенности. В статье приводятся данные прикладных исследований, указывающие на растущую роль интернет-коммуникаций в формировании общественного мнения, взглядов общества на те или иные общественные проблемы.

Статья профессора НУУз, д.соц.н. Р.Убайдуллаевой «Право, как профилактика девиантного поведения» посвящена современным тенденциям в развитии права как основного регулятора общественной жизни. По мнению автора, в развитии права можно проследить тенденции гуманизации, дифференциации и прагматизации, позволяющие вести учет многообразия форм, уровней, способов практической деятельности и тех трудностей, которые могут привести к правонарушению.

Ряд авторов представляют собой ученых, непосредственно задействованных в процессах общественного и государственного управления в нашей стране. Например, руководитель отдела социально-правового медиацентра Олий Мажлис Республики Узбекистан, к.п.н. (PhD) Г.Махаммаджанова «Институты гражданского общества и трансформация социального сознания: взаимозависимость, факторы необходимости (синергетический подход)». В статье рассмотрена деятельность, изменения, обновление, преобразование социальных институтов в обществе. Также Б.Гаибназаров, исследователь АГУ в статье «Факторы необходимости социального управления в отношениях государства и общества (социологический подход)», проанализировал новые тенденции, характерные для управления в современном обществе и государстве, в частности, социального управления с социологической точки зрения.

Влияние социальных сетей на выборы рассмотрел к.с.н., соискатель НУУз Х.Бурханов в статье «Проблемы обеспечения информационной безопасности в цифровом обществе и развития национальных сайтов». В данной статье изучен вопрос расширения возможностей информационной системы, развития национальных сайтов Узбекистана в Интернете, современная ситуация и имеющиеся проблемы.

Говоря о выборах можно с большой вероятностью можно говорить о том, что основной тематикой дебатов между политическими партиями страны будет вопрос эффективной реализации идеи «Узбекистан - социальное государство». В этой связи интерес представляет ряд статей, затрагивающих социальный блок развития общества. В частности, заместитель директора Филиала НИЯУ МИФИ в г.Ташкенте, к.с.н. З.Узакова в статье «Феноменологический анализ концепта «социальный капитал» и роль психологических факторов в формировании социального капитала лиц с инвалидностью» дала теоретический анализ преимущественно с позиции междисциплинарного подхода. Результаты исследований автора свидетельствуют о том, что несмотря на разработанные рекомендации по повышению социального капитала людей с инвалидностью, такие как создание доступной среды, инклюзивная и трудовая интеграция, тщательный подбор социального работника, эта проблема все еще остается актуальной и требует более тщательного изучения.

В статье профессора Ферганского государственного университета (ФГУ), д.с.н. (DSc) М.Абдурахмоновой даны теоретико-концептуальные аспекты профессиональной деятельности социальной работы по развитию социальной защиты. В статье разъяснено значение профессионального этического кодекса профессии социального работника при оказании социальных услуг, сделаны выводы о значении социальной работы в развитии профессиональной деятельности в новой системе социальной защиты Узбекистана.

В номере еще одна статья из Ферганы, а именно, доцента ФГУ, к.с.н. (PhD) Н.Имомовой «Совершенствование правовой и нормальной базы в сфере трудовой миграции», затрагивающей такую актуальную для общественного мнения в период выборов тему как государственную политику по регулированию процессов трудовой миграции. В статье представлены выводы, полученные в результате сравнительного анализа социологических исследований и официальных данных, проведенного автором.

В завершение отметим, что статьи из данного специального номера нашего журнала найдут своего читателя и будут способствовать лучшему пониманию развития современной социологической мысли в нашей стране. Напомним, что наш журнал открыт для любого автора, который стремится донести свои мысли об общественных процессах, которые представляют актуальный характер.

**С уважением,
Главный редактор Сеитов Азамат**

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xolbekov Abdug'ani,

O'zbekiston Milliy universiteti professori, sos.f.d.

e-mail:kholbekovabdugani@gmail.com


Rasulov Xakim,

Termiz davlat pedagogika instituti

kafedra mudiri, s.f.n., professor

rhm1973@mail.ru

HUQUQIY MADANIYAT VA SIYOSIY MADANIYAT O'ZARO ALOQADORLIGINING SOTSIOLOGIK TALQINI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.13338500>

ANNOTATSIYA

Maqolada siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini muammosining ayrim nazariy jihatlari bilan birga, fuqarolarning mazkur qadriyatlarga munosabati sotsiologik jihatdan tadqiq etilgan. Maqolada shuningdek, fuqarolarning jamiyat siyosiy hayotiga oid jarayonlar, o'z huquq va erkinliklarini idrok etish va taminlashga bo'lgan qiziqishlari, aholining nafaqat jamiyatning huquqiy va siyosiy madaniyati darajasini baholashi, balki boshqaruv tizimi, unda faoliyat olib boruvchi masul rahbar kadrlarning siyosiy madaniyati, ularning rahbarlik qobiliyatlariga baho berishi tendensiyalari ham tahlil qilingan. Mazkur baholovchi munosabat indikatorlari orqali mamlakatda fuqarolik jamiyati shakllanishi tendensiyalari haqidagi mulohaza va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: demokratiya, parlamentarizm, islohotlar, huquqiy madaniyat, siyosiy madaniyat, saylovlar, siyosiy partiyalar, hukumat, parlament, ommaviy axborot vositalari, so'z erkinligi, jamoatchilik nazorati, jamoatchilik fikri.

Холбеков Абдугани,

Профессор Национального университета Узбекистана, д.соц.н.

e-mail:kholbekovabdugani@gmail.com

Расулов Хаким,

Заведующий кафедрой Термезского государственного

педагогического института, к.п.н., профессор

rhm1973@mail.ru

СОЦИОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЗАИМОСВЯЗИ ПРАВОВОЙ И ПОЛИТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье, наряду с некоторыми теоретическими аспектами проблемы взаимной гармонии политической и правовой культуры, социологически исследуется отношение граждан к этим ценностям. В статье рассматривается интерес граждан к процессам, связанным с политической жизнью общества, восприятием и обеспечением своих прав и свобод, оценка

населением не только уровня правовой и политической культуры общества, но также анализируется система управления, политическая культура действующих в ней ответственных руководителей, тенденции их лидерских качеств. Через эти оценочные индикаторы отношения формировались мнения и рекомендации о тенденциях формирования гражданского общества в стране.

Ключевые слова: демократия, парламентаризм, реформы, правовая культура, политическая культура, выборы, политические партии, правительство, парламент, средства массовой информации, свобода слова, общественный контроль, общественное мнение.

Kholbekov Abdugani,

Professor of the National University of Uzbekistan

Doctor of sociology

e-mail:kholbekovabdugani@gmail.com

Rasulov Hakim,

Head of the department,

Termez State Pedagogical Institute, professor

rhm1973@mail.ru

SOCIOLOGICAL INTERPRETATION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LEGAL CULTURE AND POLITICAL CULTURE

ABSTRACT

In the article, along with some theoretical aspects of the problem of mutual harmony of political and legal culture, the attitude of citizens to these values is sociologically examined. The article examines the interest of citizens in the processes associated with the political life of society, the perception and provision of their rights and freedoms, the population's assessment of not only the level of legal and political culture of society, but also the management system, the political culture of the responsible leaders operating in it, and the trends in their leadership qualities are also analyzed. Opinions and recommendations on the trends in the formation of civil society in the country were formed through these evaluation indicators of attitude.

Key words: democracy, parliamentary, reforms, legal culture, political culture, elections, political parties, government, parliament, mass media, freedom of speech, public control, public opinion.

КИРИШ

Yangi Uzbekistonda rivojlanish strategiyasi halq manfaatlariga xizmat qiluvchi davlat va jamiyat qurishni maqsad qiladi. Bu bevosita ijtimoiy meyorlarning inson manfaatlariga mos tarzda takomillashuvini talab etadi. Aynan huquq meyorlariga asoslangan siyosiy madaniyat demokratik tartibotga mos keladi va fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonlarini takomillashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

МЕТОДОЛОГИЯ

Siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini muammosining ayrim nazariy jihatlarini bir qator olimlar o'rganishgan [1,2,3,4,5,6,7]. Huquqiy va siyosiy madaniyatning uzaro bir-birini taqazo etishi va tuldirishi masalasi nisbatan kam urganilgan. Shu manoda bu ikki muhim qadriyatning urni va uzaro aloqadorligi muammolarini sotsiologik jihatdan urganish muhimdir. Mavzu yuzasidan utkazilgan sotsiologik tadqiqot jamoatchilik fikrining demokratik institutlar va meyorlarga munosabatini aniqlash imkoniyatini beradi.

АСОСИЙ ҚИСМ

Siyosiy jarayonlarga siyosiy madaniyat prizmasi orqali qarash davlat va jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarni chuqur idrok etish imkonini beradi. Bunda siyosiy madaniyat va siyosiy jarayon tushunchalari jamiyat siyosiy hayotidagi eng muhim ikki hodisadir. Rus tadqiqotchisi O.Fomin fikricha, ularning har biri o'ziga xos mazmun kasb etib, dominant xususiyatga ega [8, –

B.86]. Darhaqiqat, global jarayonlar kechayotgan bugungi davrda “siyosiy madaniyat” degan iboraga tez-tez duch kelamiz. Shuningdek, jamiyatda huquqiy vadaniyat uz ustuvorligini saqlab qolishi zarur. Huquqshunos olim A.Saidov ta’kidlaganidek, “aholining huquqiy ongini va huquqiy madaniyatini doimiy oshirib borish mamlakatda qonun ustuvorligini ta’minlashning va qonuniylikni mustahkamlashning muhim omillaridan bir hisoblanadi. Odamlar qonunlarni qancha ko’p va yaxshi bilsa, ularning mohiyati va ahamiyatini anglab yetsa, o’z huquq va manfaatlarini shuncha samarali himoya qila oladi” [9, – B.8].


Siyosiy madaniyat – bu fuqarolarning siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo’lgan munosabatidir. Bu munosabat fuqarolarning siyosiy hayotdagi faolligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, siyosiy madaniyat insonning siyosiy hodisalar haqidagi tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo’ladigan faoliyatidir [10].

Huquqiy madaniyat – bu jamiyatda huquqqa nisbatan bilim va munosabatning umumiy darajasi bulib, u insonlarning uzaro hayotiy faoliyati va munosabatlari jarayonida vujudga keladigan meyorlar majmuasi sifatida namoyon buladi. Bunda huquqiy madaniyatning subektlari bulib shaxs, ijtimoiy guruhlar va jamiyat faoliyat kursatadi. Bozor mexanizmlarining jamiyat hayotiga tobora chuqur kirib borishi jamiyatning turli qatlamlari turmush tarzi va uzaro munosabatlari huquqiy madaniyatning ahaviyatini oshiradi [11, – P.1246].

Siyosiy va huquqiy madaniyatning o’zaro aloqadorligi esa huquqiy madaniyat bazasida siyosiy madaniyat va siyosiy tajribani shakllantirish, saqlash va yetkazish tizimidir. Bu tizim jamiyatning rivojlanishi, saqlanishi va yuksalishini ta’minlaydigan qadriyatlar va normalar to’plami vazifasini bajaradi.

Mualliflar tomonidan 2024-yil iyun oyida aholining siyosiy va huquqiy madaniyatning o’zaro aloqadorligini aniqlashga bag’ishlangan on-layn so’rov o’tkazildi. Tadqiqotda O’zbekistonning barcha hududlaridan 18 va undan katta yoshdagi 300 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Respondentlarning 49 % ini ayollar, 51 % ini esa erkaklar tashkil qildi. Tadqiqot doirasida respondentlarga mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog’liq savollar bilan murojaat qildik.


Olingan empirik malumotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, O’zbekiston fuqarolarining mamlakat siyosiy hayotida va unda kechayotgan siyosiy jarayonlar bilan bog’liq qarashlari dinamik xususiyatini namoyon qilmoqda. “Siz jamiyat siyosiy hayotidagi islohotlar va o’zgarishlarni doimiy kuzatib borasizmi?” degan savolga respondentlarning 76%i doimiy kuzatib borishini, 13,5%i siyosiy jarayonlarga kamdan-kam hollarda e’tibor qaratishini bildirgan. Shuningdek, 8,7 % respondentlar siyosatga, siyosiy jarayonlarga har doim ham e’tibor qaratmasligini, 1,6%i esa siyosiy hayotdagi o’zgarishlar ular uchun ahamiyatli emas deb hisoblashini bildirgan bo’lsa, 0,6 %i respondent siyosiy hayotni har doim ham kuzatib borishga imkon topolmasligini bildirgan (1-rasm).



1-rasm. Fuqarolarning jamiyat siyosiy hayotidagi o’zgarishlarni kuzatib borishi


Malumki, siyosiy hayotni kuzatish va unda faol ishtirok etishda fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatining darajasi muhimdir. Jamiyat siyosiy va huquqiy madaniyatining yuqori bo’lishi fuqarolarda mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga daxldorlik tuyg’ularining shakllanishiga, ijtimoiy hayotda siyosiy va huquqiy faollikning oshishiga xizmat qiladi. Tadqiqot doirasida respondentlardan aholining siyosiy va huquqiy madaniyati darajasining yuqori bo’lishi

qanchalik muhimligi soʻralganda, ularning 86%i juda muhim ekanligini bildirgan, faqatgina 3%i umuman muhim emasligini taʼkidlaganlar. Aynan mana shu katta farq, fikrimizcha, mamlakatimizda fuqarolarning siyosiy va huquqiy jarayonlarga siyosiy va huquqiy madaniyat prizmasi orqali qarashi borgan sari oʻsib borayotganligini koʻrsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning 8%i hokimiyat va boshqaruv tizimida ishlaydigan kadrlar siyosiy va huquqiy madaniyatining yuqori boʻlishi muhim degan xulosaga kelgan, 3%i esa bu haqida oʻylab koʻrmaganligini bildirgan (2-rasm).



2-rasm. Aholining siyosiy va huquqiy madaniyati darajasining ahamiyati


Shuningdek, tadqiqotda aholi siyosiy va huquqiy madaniyatining bugungi holati ham oʻrganildi. Unga koʻra, respondentlarning 22,8%i Oʻzbekiston fuqarolarining siyosiy va huquqiy madaniyati juda yuqori ekanligini, 17%i esa, aksincha, juda pastligini bildirgan boʻlsa, 33,7%i endi shakllanish bosqichida deb hisoblashar ekan. 25,3% respondentlar aholining siyosiy va huquqiy madaniyati amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uygʻun holda oʻzgarib borayotganligini, boshqa respondentlar esa fuqarolarning koʻpchiligi oʻz haq-huquqlarini bilganlari holda, majburiyatlarini bilmasliklarini qayd etganlar. Mazkur tahlillar shuni koʻrsatadiki, jamiyat siyosiy va huquqiy madaniyatining real holati talab darajasida emas (3-rasm).



3-rasm. Aholi siyosiy va huquqiy madaniyati holatining baholanishi


Siyosiy va huquqiy madaniyatning oʻzaro aloqadorligi mamlakatdagi siyosiy-huquqiy taʼlimning real holatiga ham uzviy bogʻliqligini aytib oʻtgandik. Jamiyatning siyosiy-huquqiy jihatdan ratsionalligi unda amal qiladigan demokratiyaning darajasini, inson huquq va erkinliklarining amaldagi ifodasini bildiradi. Jamiyatda siyosiy-huquqiy taʼlimning zaruriyati xususidagi soʻrovda respondentlarning 46%i siyosiy-huquqiy savodxonlikni oshirish, 17%i siyosiy-huquqiy ongni yuksaltirish, 18%i jamiyat siyosiy hayotidagi islohotlarning mohiyatini anglash, 11%i

davlat va jamiyat boshqaruv tizimiga oid bilimlarni oshirish, 8%i barcha huquqlardan foydalanish ko'nikmalari muhimligini aytib o'tganlar (4-rasm).



4-rasm. Siyosiy-huquqiy talim zaruriyatining namoyon bo'lishi yo'nalishlari

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tarmoqlaridagi modernizatsiya jarayonlari uni harakatga keltiruvchi sub'ektlarning siyosiy-huquqiy ishtiroki bilan belgilanadi. Sotsiologik tadqiqotda "Sizningcha, jamiyatning yangilanish jarayoni aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatiga bog'liqmi?" degan savolga respondentlarning 77%i "ha" deb javob qaytargan bo'lsa, bor yo'g'i 7%i "yo'q" deb takidlaganlar. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligiga 11% respondentlar qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning ijrosiga, 4%i mas'ul rahbarlarning tashabbuskorligiga bog'liqligini bildirganlar. Bundan shunday xulosa qilish mumkin, jamiyatning yangilanishi, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyatining bugungi real holatiga bog'liqdir. Jamiyat siyosiy-huquqiy ongi va madaniyati yuksalishi esa islohotlar samaradorligi bilan o'zaro uyg'unlikdagi hodisalar sifatida namoyon bo'ladi (5-rasm).




5-rasm. Jamiyatning yangilanish jarayonining aholi siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatiga bog'liqligi

Jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyati shakllanishiga muayyan pozitiv va negativ omillar ham ta'sir ko'rsatishini sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning fikri ham tasdiqlaydi. Xususan, siyosiy va huquqiy madaniyat shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi muammolar sifatida 27% respondentlar mamlakatda siyosiy va huquqiy axborotning kamligini, 9%i davlat hokimiyati

organlari faoliyati ochiqligining to'la ta'minlanmaganligini aytib o'tganlar. Salbiy omil sifatida yana 29% respondentlar aholida siyosiy jarayonlarga nisbatan befarqlik holati mavjudligini ta'kidlaganlar.


Tadqiqot natijalariga ko'ra, bir tomondan siyosiy-huquqiy axborot, ochiqlik va erkinlik siyosati, qonun ustuvorligi, hokimiyat organlari faoliyati ochiqligi kabi omillar siyosiy-huquqiy madaniyatning o'zgarishlariga yordam bersa, ikkinchi tomondan mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va transformatsiya jarayonlariga nisbatan befarqlik, loqaydlik tendensiyalarining saqlanib qolayotganligi siyosiy-huquqiy madaniyatni yuksaltirishga salbiy ta'sir qilmoqda (6-rasm).



6-rasm. Aholining siyosiy-huquqiy madaniyatining shakllanishiga tasir ko'rsatuvchi omillar


Dunyo tajribasi, tahlil va kuzatishlar shuni anglatadiki, islohotlar jarayonida siyosiy va huquqiy madaniyatning integratsiyasiga erishmasdan turib, jamiyatni modernizatsiya qilib bo'lmaydi. Sababi, siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligiga erishishda jamiyat hayotining barcha sohalaridagi islohotlar o'z o'rniga ega. So'rovda ishtirok etgan respondentlarning 34,6%i ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topish, 18,9%i jamiyatda byurokratiya va korrupsiya holatlarini kamaytirish, 20,2%i qonun ustuvorligining ta'minlashi, 18,9%i inson huquq va erkinliklarini amalga oshirish, 6,4%i davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi, 0,6%i rahbar kadrlar faoliyati, saylov jarayonida va davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayoni bilan bog'liq ekanligini bildirganlar.

Darhaqiqat, siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini taminlash o'tkir ijtimoiy illatlar, avvalo byurokratiya va korrupsiya bilan jiddiy kurash olib borish, bunda qonun ustuvorligi, demokratik saylovlar, boshqaruvning ochiqligiga tayanishni talab etadi (7-rasm).




7-rasm. Siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini taminlashdagi muhim sohalar

Siyosiy va huquqiy madaniyatning yuksalishi jamiyatda amal qiladigan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy jarayonlar ta'sirida yuz beradi. Sotsiologik so'rovda ishtirok etgan respondentlarning 38,8%i siyosiy-huquqiy targ'ibotni kuchaytirish, 32,7%i siyosiy-huquqiy ta'limni rivojlantirish, 16,7%i davlat organlarining jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish, 9,9%i so'z va axborot erkinligini amalda ta'minlanishini asosiy omillar sifatida takidlashgan bo'lsa, 1,8%i sanab o'tilgan barcha omillar muhim ahamiyat kasb etishini qayd etganlar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda siyosiy-huquqiy targ'ibot va ta'lim eng muhim omillardan biri hisoblanadi (8-rasm).




8-rasm. Siyosiy va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ustuvor omillari

Ma'lumki, boshqaruv tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonlari rahbar kadrlar oldiga jiddiy talablarni qo'yimoqda. Xo'sh, davlat boshqaruv tizimi kadrlarining siyosiy va huquqiy madaniyati bugungi islohotlar talabiga qay darajada javob beradi? Mazkur savolga respondentlarning 30,1%i rahbar kadrlar islohotlar talabiga javob beradi deb javob bergan bo'lsa, 7,4%i umuman javob bermaydi, degan fikrda, 25,3%i qisman bo'lsada javob beradi, 20,2%i rahbar kadrlarning siyosiy va huquqiy bilimlarini oshirish kerak, 9,6%i boshqaruv kadrlari orasida siyosiy va huquqiy madaniyati yuqorilar ham bor, 7,4%i bu borada yakdil fikr aytish qiyin degan pozitsiyada ekanliklari malum bo'ldi (9-rasm).




9-rasm. Boshqaruvdagi rahbar kadrlarning siyosiy va huquqiy madaniyatining talablarga javob berishining baholanishi

Rahbar va boshqaruv kadrlarining siyosiy va huquqiy madaniyatining real holati jamoatchilik bilan aloqalarda, shaxs-jamiyat-davlat munosabatlari tizimida to'la namoyon bo'ladi. Shu bois ham, rahbar va boshqaruv kadrlari siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni zaruriyatga aylantirayotgan muammolarni sotsiologik tahlil qilish muhimdir. Bu borada respondentlarning 49%i rahbar va boshqaruv kadrlarida shaxsiy manfaatlarning ustuvorligini, 19%i jamiyat va xalq oldida mas'uliyatsizlikni, 12%i rahbar va boshqaruv kadrlari faoliyatida ta'magirlikning turli ko'rinishlari uchrayotganligini, 9%i boshqaruvda ijtimoiy adolatsizlik holatlarini, 10%i boshqaruv sohasida nepotizm (qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik, tanish-bilishchilik) holatlarini, 2%i yuqoridagi muammolarning barchasi mavjudligini aytib o'tishgan (10-rasm).



10-rasm. Rahbar va boshqaruv kadrlari siyosiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishni zaruriyatga aylantiruvchi muammolar

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash uchun qaysi sohalarga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi xususida respondentlarning fikri qiziqarlidir. Xususan, ularning 42,6%i ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimiga, 32,4%i davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, 19,2%i rahbar kadrlar siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, 4,5%i davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosatini amalga oshirishga, 0,9%i boshqa sohalarga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini qayd etganlar (11-rasm).



11-rasm. Siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini taminlashda jiddiy etibor talab etuvchi sohalar

Shuningdek, tadqiqotda “Sizningcha, O‘zbekiston taraqqiyotida siyosiy va huquqiy madaniyatning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash uchun qaysi sohalarga jiddiy etibor qaratish lozim?”, degan savolga javob berishar ekan, respondentlarning 35%i huquq-tartibot organlariga, 29%i davlat boshqaruv organlariga, 15%i ommaviy axborot vositalariga, 20%i ta‘lim tizimiga va 1%i boshqa soha vakillariga ko‘proq mas‘uliyat yuklanishi kerak, deb hisoblaganlar.

XULOSA

Siyosiy va huquqiy madaniyatning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlash muammolariga oid tadqiqot fuqarolarning mazkur qadriyatlarga nisbatan befarq emasligini ko‘rsatdi. Xususan, ularning jamiyat siyosiy hayotini kuzatib borishlari bilan birga, o‘z huquqlarini taminlashga harakat qilishlari, ularning nafaqat aholining va jamiyatning huquqiy va siyosiy madaniyati darajasini baholashga urinishlari, balki boshqaruv tizimidagi rahbar kadrlarning siyosiy madaniyatiga va rahbarlik qobiliyatlariga nisbatan ham malum talablar qo‘ya olishlari aniqlandi. Bu esa, mamlatimizda fuqarolik jamiyati tamoyillari sekinlik bilan bo‘lsada, shakllanish yo‘liga o‘tayotganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Баталов Э.Я. Политеская культура как социальный феномен. Вестник Московского университета. Серия 19// Социально-политические исследования. 1996. №5. – Стр. 5-10.
2. Ибраева А.С. Структура правовой культуры. Реформа № 4/2002. -Стр. 69-71.
3. Карпова Н.В. Политическая культура как структурный элемент механизма функционирования политических систем// Вестн. Моск. ун-та. сер. 18. Социология и Политология. 2016. № 1. – Стр. 182-199.
4. Алмонд Г.А., Верба С. Гражданская культура: политические установки и демократия в пяти странах / пер. с англ. Е. Генделя. – М.: Мысль, 2014. – Стр. 500.
5. Липсет С.М. Роль политической культуры // Пределы власти. –1994. – № 2–3.
6. Липсет С.М. Политический человек: социальные основания политики / пер. с англ. Е.Г. Генделя, В.П. Гайдамака, А.В. Матешук. – М.: Мысль, 2016. – 612 с.
7. Хантингтон С.Ф. Будущее демократического процесса: от экспансии к консолидации // МЭ и МО. М.: 1995. № 6. – Стр. 92
8. Фомин О. Политическая культура как фактор политического процесса. Власть 2012/03. – Стр. 86.
9. Саидов А.Х. Президент мурожаатномасида ҳуқуқий маданият ва ҳуқуқий онг тўғрисида // Ижтимоий фикр, инсон ҳуқуқлари. – 2019. - №1 (85). – Б. 8.
10. Холбеков А.Ж., Назарқосимов С.И., Бердиев Б., Эргашева М. Ўзбекистонда ижтимоий ҳаёт трансформацияси. – Тошкент: “KALEON PRESS”, 2021. – 252 б.
11. Kholbekov A., Berdiev B. Stratification Processes in Uzbek society: General and specific // Linguistics and Culture Review, 5 (S2). – P. 1245-1258/ - 2021.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

2-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000